

2017 yil yanvar—oktabr oylari

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—oktabr oylarida 883,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 211,1mln. AQSh dollarini va import 372,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı – 461,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,8 foizga oshib, xizmatlar eksporti esa 23,0 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 84,8 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 75,9 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar—oktabr oylarida 586,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 179,2 mln. AQSh dollarini va import 407,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Eksport tarkibi, foizda



Import tarkibi, foizda






Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 47,9 foizini mashina va asbob-uskunalar, 26,3 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,3 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 31,7 foizni va safarlar xizmati 30,9 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni 47,9 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 4,8 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (52,9 foiz) eksport hajmining yarmidan ko'prog'ini tashkil etdi.




2017 yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosini –416,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –34,6 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –427,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2017 yil yanvar—oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	211,1	102,0	100
paxta tolasi	2,4	-	1,1
oziq-ovqat mahsulotlari	111,7	87,6	52,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	5,9	106,0	2,8
qora va rangli metallar	5,3	21,7	2,5
mashina va asbob-uskunalar	10,2	131,8	4,8
xizmatlar	26,1	123,0	12,3
boshqalar	49,4	146,0	23,4
Import	672,7	116,2	100
oziq-ovqat mahsulotlari	73,3	103,7	10,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	176,7	97,2	26,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,8	87,4	0,3
qora va rangli metallar	26,8	123,6	3,9
mashina va asbob-uskunalar	322,1	128,4	47,9
xizmatlar	3,8	68,1	0,6
boshqalar	68,2	151,4	10,1


2017 yil yanvar—oktyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 30,0 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 70,0 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.




Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)

Eksport



Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 84,8 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,5 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi da 28,7 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,4 foizini tashkil qildi), 33,4 foizini mevalar (77,5 foizini), 36,7 foizini uzum (76,6 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 45,2 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (84,0 foizni) tashkil qildi.




Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 23,6 foiz), Rossiya (14,6 foiz), Iroq (7,2 foiz), Xitoy (10,5 foiz), Turkiya (15,4 foiz), Belarus(3,2 foiz) va Eron Islom Respublikalari (4,8 foiz) hisoblanadi.

Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Eksport tarkibining umumiy hajmidan 40,2 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 105,9 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,8 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 26,4 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 90,3 foizni, sabzavotlar 35,7 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,9 foizni), **uzum** 41,6 ming tonnani (98,7 foizni), **yer yong'oq** 1,1 ming tonnani (57,6 foizni), **qovun va tarvuz** 1124,6 tonnani (2,2 martani) tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel: 71-230-85-23